
TOSHLOQ TUMANI HOKIMINING NAVBATDAGI QABULI BO‘LIB O‘TDI

Bugungi bo‘lib o‘tgan navbatdagi qabulni tuman hokimini birinchi o‘rinbosari Kamolitdin Umarov o‘tkazdi. Qabulda har bir fuqarolarning murojaatlari birma-bir tingladi. Ular qo‘ygan muammolar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tumandagi xalq qabulxonasi va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko‘rildi.

Ayrim murojaatlarda ko‘rsatilgan masalalarni hal etish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berdi.

Qabulda uy-joy, moddiy yordam, kommunal xizmat, bank, sog‘liqni saqlash, bandlik, tadbirkorlik va boshqa masalalarga oid 25 ta murojaatning 10 tasi joyida ijobiy hal etildi. To‘rt nafar fuqaroning murojaati bo‘yicha huquqiy tushuntirish berildi. Qolgan 11 tasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘rganib, chora ko‘rish uchun tegishli tashkilot va korxonalariga yuborilib, ijrosi nazoratga olindi.

2023-10-04 15:19:22